

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

## 是 shì ELEMENTINING BOG'LAMA SIFATIDA SHAKLLANISHIGA DOIR MULOHAZALAR

To‘xtamishev Abdurasul

SamDChTI, Yaqin sharq tillar kafedrasi katta o’qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** 是 shì elementi xitoy tili tarixida turli davrlarda turli vazifalarni bajargan. Uning qadimgi xitoy tilida paydo bo'lganidan boshlab to hozirgi zamonaviy xitoy tili qo'llanilishi holatlari turlicha bo'lgan. Xitoysunos olimlar tomonidan uning shakllanishi va rivojlanishiga oid turli fikrlarni keltirib o'tganlar. Mazkur maqolada 是 shì elementining shakllanishiga doir nazariyalarni tahlil qilib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** ko'rsatish olmoshi, izohlovchi izohlanmish, pauza, o'timli fe'llar, morfosintaktik kontekst, bog'lama fe'l, nominal predikat.

是 shì bog'lamsi qadimgi xitoy tilidagi ko'rsatish olmoshidan kelib chiqqanligi haqidagi qarash eng keng tarqalgan. Bu fikr Vang tomonidan ilgari surilgan va Feng, Pulleyblank, Shi va Li va boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Vangning ta'kidlashicha, qadimgi xitoy tilida ega unga ishora qiluvchi anafora vazifasini bajarayotgan 是 shì bog'lamsi ko'rsatish olmoshi bilan qo'llanilgan. 是 shì bog'lamsi aksariyat hollarda ega va kesimni bog'lash vazifasini bajaruvchi o'rinda qo'llanilib, o'zining bog'lama aylanish jarayonini boshlab bergen bog'lama ko'rsatkichi sifatida ishtirok etgan. Feng 是 shì bog'lamasini ilk qadimiy xitoy davridagi izohlovchi izohlanmish konstruksiyasidagi ko'rsatish olmoshi birligining shaklidan kelib chiqqan deb hisoblaydi va ilk qadimgi xitoy tilidagi izohlovchi – izohlanmish konstruksiyasida ular o'rtaida pauza kerakligini aytib o'tadi.

Fengning taxminicha, 是 shì ko'rsatish olmoshining 是 shi bog'lamasiga aylanish sababi undagi ko'rsatish olmoshi sifatida bajaradigan vazifaning hamda talaffuz jarayonida uni ifodalovchi pauzaning qo'llanilishiha ehtiyojning yo'qolishidir. Ammo, taxminimizcha, klassik xitoy tilida pauza ifodalanishi bilan bog'liq muammo bu o'rinda yuzaga chiqib qolgan, boisi matnda aynan 兮 xī belgilari kabi iyeroglisflarda talaffuz me'yorlari aks ettirilmagan. Pauzaga bo'lgan ehtiyojning yo'qolishi ko'rsatish olmoshidagi urg'u ohangining susayishiga olib kelgan hamda zaruratning bor yo'qligiga qaramay ko'rsatish olmoshining fe'lga aylanishiga sabab bo'lgan.

Shi hamda Li grammatikalizatsiya nazariyasiga asoslangan holda, shì bog'lamsi ko'rsatish olmoshining qadimgi xitoy tilida doimiy o'timli fe'llar yasalish modeli asosida analogik tartibda kelib chiqqanligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Ularning ta'kidlashicha, tilning mutlaq tarkibiy mazmuni ma'lum davrga kelib analogik jarayon orqali grammatikalizatsiyaga uchraydi. Qadimgi xitoy tilida allaqachon so'zlarning odatiy tartibi shakllangan bo'lib, 是 shì bog'lamasining ega va ot kesim o'rtaida qo'llanilish o'rni morfosintaktik xarakterdagi kontekst hisoblanadi va unda o'timli fe'l nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda 是 shì bog'lamsi qolipga solinadi. Shu bilan birga, zamonaviy xitoy tilidagi shì bog'lamsi sintaktik jihatdan muhim bo'lgan vaziyatlarda odatiy o'timli fe'llardan farq qilishi yaqqol namoyon bo'ldi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarning hech biri tub birlik va ko'zlangan natija orasidagi semantik aloqadorlikni, shuningdek, yangi ma'no kuzatilishi va yuzaga kelishi mumkin bo'ladigan morfosintaktik kontekstlarni hisobga olmaydi. Bundan tashqari, ularning hech biri 是 shì bog'lamasidagi shakl va ma'no muvofiqligini ko'zda tutmaydi.

Qadimgi xitoy tili yoki venyan tilidagi bog'lama fe'llarining o'ziga xos xususiyati, garchi bu turli xil bog'lomalarga tegishli bo'lsa ham jumlada bitta emas, balki ikkita pozitsiyani egallash qobiliyatidir.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

Klassik venyanda eng keng tarqalgan mandaringa mansub 是 shì bog‘lamasi yo‘q, u venyanda ko‘rsatish olmoshi ma’nosida qo‘llangan. Biroq avvalgi o‘rinlarda bir necha bor ta’kidlanganidek, so‘nggi Venyan davrida ma’lum o‘tish shakllari paydo bo‘lgunga qadar og‘zaki tilning ko‘p sonli elementlarini venyan va so‘zlashuv tili qorishmasida yozilgan matnlar o‘zlashtirdi. Jumladan, 等我所會是何 [děng wǒ suǒ huì shì hé] – “Meni nima kutishi mumkin?” misoli tahlilida quyidagilarni kuzatish mumkin: 是 shì bog‘lama morfemasi 會 huì “mumkin bo‘lmox” modal fe‘li bilan birikadi (bu venyan tilida unchalik keng tarqalgan emas) va bu birikma “balki” ma’nosini ifodalaydi. O‘rta asrlarda allaqachon modal fe’llardan foydalanish natijasida 是 shì bog‘lamasini qayta ko‘rib chiqish va bu so‘zni bog‘lovchi sifatida ishlatish holatlari aniq qayd etila boshlandi - 會是何 huì shì hé ikkalasini ham "bu (bo‘lishi mumkinmi)" deb talqin qilish mumkin. Bunday qayta ko‘rib chiqishning mantiqiy mexanizmlari aniq va ravshan, ammo bu shakllarning ko‘pchilagini o‘z ichiga olgan matnlarni “sof” venyanga bog‘lash qiyin.

Nominal predikatli venyanning tasdiqlovchi gaplarida (mandarin tilidan farqli o‘laroq) bog‘lanishning bo‘lishi shart emas, lekin inkor gaplarda 非 fēi bog‘lanishi bo‘lishi shart. Quyidagi bog‘lanishlar klassik venyan uchun xosdir: 也 yě; gap oxirida kelgan yagona bog‘lovchi (rus tilidagi nuqta analogi sifatida) va inkor gaplarda 非 fēi bilan almashtirilmaydigan, lekin ikkinchisi bilan birga qo‘llaniladigan yagona bog‘lovchi; ko‘pincha 也 yě bilan tasdiqlovchi tuzilmadagi predmet 者 zhě qo‘shimcha yordamchi so‘zi bilan qo‘llaniladi, buning natijasida ba‘zi tadqiqotchilar 也 yě mustaqil bog‘lovchi emas, balki bog‘lovchi tuzilmaning modallik ma’no bo‘yog‘ini beruvchi yakuniy elementi deb hisoblashadi: 仁者人也 [rénnzhě rén yě] – Muruvvat – bu insoniylik; 鯨非魚也 [jīng fēi yú yě] – Kit balıq emas; 五德, 溫良恭儉讓也 [wǔ dé, wēn liáng gōng jiǎn ràng yě] – Beshta narsa fazilatdir: mo‘tadillik, mehribonlik, to‘g‘rilik, bo‘ysunish va kamtarlik.

Odatda, jumlada fe‘lning ob‘yektni tashkil etuvchi 所 suo bilan ot kompleksi mavjud bo‘lsa, 者 zhě yo‘q. 索之所知也.[sōu zhī suo zhī yě] – Bu siz bilgan narsadir.

是 shì ning grammatik kategoriyasi doirasida ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xitoy tilshunosi Ma 是 shì ni ko‘rsatishni yoki otli birikmani ifodalovchi anaforik olmosh sifatida tahlil qilgan. Dastlab Vang 系词 xì cí zamonaviy xitoy tilida keng tarqalgan 是 shì o‘zi bog‘lovchi fe‘l deb ta’kidlagan. Jespersenga, tayangan holda Vang 是 shì bog‘lamasi ingliz tilidagi “to be” fe‘liga o‘xshab leksik ma’noga ega bo‘lmagan yolg‘iz o‘zi qo‘llanilganda hech qanday ma’no anglatmaydigan birlik degan fikrni bildiradi. U 是 shì bog‘lamasini 虚词 xū cí “bo‘sh so‘z” ideb hisoblab, undan keyin qo‘llanuvchi o‘zining har qanday aniqlovchisi bilan bir butunlikdagi iborani tashkil qiladi, natijada 是 shì bog‘lamasi ot kesimni ifodalovchi har qanday yordamchi so‘zli birikmani hosil qiladi, deb hisoblaydi. Shuningdek, uning fikricha, 是 shì bog‘lamasi semantik ma’no ifodalash imkoniyati yo‘q birlik bo‘lishiga qaramasdan, uning ikki xil ajratilgan vazifasi mavjud: ularning birinchisi sabab ko‘rsatkichi, yana biri suhbatdosh ifoda qilgan mulohaza inkori yoki uning tasdig‘ini ifodalovchi xususiyatdir.

## FOYDALANILGAN ADABYOTLR RO‘YXATI:

- 王力. 中国文法中的系词 // 汉语史论文集. 北京: 商务印书馆. 1937. 212-276 页.; 石毓智, 李讷. 汉语语法化的历程. 北京: 北京大学出版社. 2001. – 414 页;
- Feng, Shengli. The copula in classical Chinese declarative judgment sentences//Journal of Chinese Linguistics, 21. 1993. – P 277-311.; Pulleyblank, Edwin G. 1995. Outline of Classical Chinese Grammar. Vancouver: UBC Press.
- 馮勝利. The copula in classical Chinese declarative judgment sentences // Journal of

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

Chinese Linguistics 21. 1993. –P. 277-311.

4. 石毓智, 李讷. 汉语语法化的历程. 北京: 北京大学出版. 2001. 社.
5. 洪诚. 论南北朝以前汉语中的系词. “语言研究”第2期. 1958. – P 1-22.
6. 陈建民. 现代汉语句型论. 北京: 语文出版社, 1986. – 235页.
7. 颜祥霖. 汉语系词“是”的来源. Journal of Chinese Linguistics 14.2: 227-241. 1986.
8. Скворцов А. В. Курс древнекитайского языка: учебник. – М.: Издательство ВКН, 2017. – С. 249.
9. Люй Шу-сян. Очерк грамматики китайского языка. – М.: Издательство восточная литература., 1961. – С. 132.
10. 马建忠. 马氏文通. 北京: 商务印书馆. 1898.
11. 王力. 中国文法中的系词. 北京: 商务印书馆. 1937; 王力. 汉语史论文集. 北京: 科学出版社. 212-276页. 1958.
12. Otto Jespersen. The Philosophy of Grammar. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1924. – 362 p.